

“TASDIQLAYMAN”



O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-
tadqiqot instituti direktori v.v.b.,
Jamoatchilik kengashi raisi

A.R.Anorbayev

“oktyabr” 2023-yil

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi xuzuridagi

Jamoatchilik kengashi yig'ilishining 2 -sonli

BAYONNOMASI

Ilmiy kengash raisi: A.R.Anorbayev - O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti direktori v.v.b.

Yig'ilish kotibi: A.Kadirov - O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Qatnashdilar: Kengash raisi o'rinbosari O.Sulaymonov, kengash azolari: X.Kimsanbaev, Q.Bobobekov, A.Ma'rupov, N.Tufliev, U.Raximov, A.Xudoyqulov, B.Boltaev, S.Sadinova, D.Zufarova, J.Salixov, SH.Xudoyberdiev.

Taklif qilinganlar: A.Tashbayev, B.Nasimov, O.Sulaymonov, X.Tursunbekov, Sh.Jumayev, M.Bekmurodov, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti va Agentlik bosh boshqarmasining tegishli xodimlar

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi O'RQ-419-son Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-419-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'RQ-788-son Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatlari tomonidan o'dob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 595-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual

kodeksi, Xo'jalik protsessual kodeksiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasini ta'minlash hamda davlat va din munosabatlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining roli haqida.

(A.Tashbayev, B.Nasimov, O.Sulaymonov, X.Tursunbekov, Sh.Jumayev, M.Bekmurodov, Agentlik xodimlari, Ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari.)

O'simliklar karantini va himoyasi agentligida "Davlat xizmatchisining kasbiy majburiyatlari: korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, davlat va din munosabatlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining roli" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Mazkur yig'ilishda Agentlik rahbariyati, markaziy apparati, Ilmiy-tadqiqot instituti, shuningdek, "Zoom" platformasi orqali barcha tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarmalar xodimlari ishtirok etdi.

Yig'ilishni O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Faxriylar kengashi raisi Azamat Tashbayev olib bordi va bugungi yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi boshlig'i Xudoyberdi Tursunbekov, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita eksperti Shohrux Jumayev hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi Muzaffar Bekmurodovlar qatnashgan davra suhbatida korrupsiyaning kelib chiqishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy zararlari, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari va mexanizmlari, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati, asosiy prinsiplari haqida so'z olib borilishini aytib o'tdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi boshlig'i Xudoyberdi Tursunbekov o'z chiqishida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari bilan tanishtirdi:

- tashkilot xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;

- barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Institut faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

-xodimlar faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor qoidalariga muvofiqligini ta'minlash;

-korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi tamoyilini ta'minlash;

-xodimlarning huquqiy doirada faoliyat yuritishini, Institutning ichki talab qoidalariga belgilangan tartibda qat'iy rioya etilishini har tomonlama ta'minlash.

-mas'ul xodimlari tomonidan institutning barcha xodimlarini qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab va xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda sifatli bajarishi hamda huquqbuzarlik sodir etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa harakatlarning oldini olish maqsadida muntazam nazorat olib borilishi to'g'risida bayonot berdi.

Shuningdek korrupsiyaga sabab bo'layotgan holatlarni hamda jamiyatni bu balodan qutqarish masalasini muhokamasi va korrupsiya to'g'risidagi normativ huquqiy hujjatlarni tashkilotdagi barcha xodimlarga yetkazish, shuningdek targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi borasida ham tushunchalar berib o'tdi hamda Institutdagi barcha xodimlarning halol, mas'uliyatli va adolatli bo'lishlari yuzasidan tushuntirish berib o'tdi.

So'ngra yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita eksperti Shohrux Jumayev so'zga chiqdi Din ishlari bo'yicha qo'mita eksperti tomonidan davlat va din munosabatlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining roli, shuningdek, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaslik, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir davlat xizmatchisi, birinchi navbatda, yoshlar chuqur anglab etishlari lozimligi haqida alohida ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi Muzaffar Bekmurodov so'zga chiqib Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida so'z yuritdi. Shuningdek, ushbu qarorda Davlat xizmatchilarining nafaqat xizmatni o'tash vaqtida, balki, xizmatdan tashqari

vaqtdagi odob-axloq qoidalari, shu bilan birga, rahbar xodimlarning majburiyatlari to'g'risida ham alohida belgilab qo'yilganligi tushuntirildi.

Institut laboratoriyasi mudiri D.Nurmuhamedov so'zga chiqib yuqorida aytib o'tilgan masalalardan kelib chiqib haqiqatdan ham bildirilgan fikrlar mazmun va mohiyatdan to'g'riligi korrupsiya bor joyda rivojlanish hamda xodimlarning o'zaro munosabatlarida samimiyik bo'lmasligini, buning natijasida ilm-fanda bilim salohiyati, yoshlarning ilmga bo'lgan intilishi kamayib borishini aytib o'tdi va Institutda faoliyat olib borayotgan yosh kadrlarga ayniqsa o'rnak bo'ladigan masalalar ko'tarilganligi va bugungi kunda dinniu niqob qilib yoshlarni har xil oqimlarga tortib ketayotgan voqealar uchrab turganligini aytib ularni ogohlikka chaqirdi.

Davra suhbatini so'nggida yig'ilish ishtirokchilariga o'zlarini qiziqtirgan savollari bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan batafsil tushuntirishlar berildi.

QAROR QILDI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatlari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni bilan tanishtirish ta'minlansin hamda O'simliklar karantini va himoyasi agentligi va uning tizim tashkilotlari har bir xodimi imzo qo'ygan holda tanishtirilsin.

2. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi va tizim tashkilotlarida xodimlar o'z faoliyatini korrupsiyaga qarshi Agentlik ichki normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida olib borish, faoliyati davomida duch keladigan korrupsiyaviy holatlar hamda manfaaatlar to'qnashuvi to'g'risida 71) 202-64-64 raqamli ishonch telefoniga habar berish bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

Yig'ilish kotibi



A.Kadirov